



XALQ DEPUTATLARI NAVOIY VILOYATI KENGASHINING Q A R O R I

2026-yil 9-yanvar

VII-23-1-5-0-K/26

Navoiy viloyati

Navoiy viloyati bo'yicha 2026-yilda yuridik va jismoniy shaxslar uchun ayrim soliqlarni hisoblab chiqarish maqsadida qo'llaniladigan koeffitsentlar, mutlaq miqdor summalarini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 24-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 412, 422, 429 va 437-moddalariga asosan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrda "Resurs soliqlari va mol-mulk solig'ini yanada takomillashtirish to'g'risida" PF-6121-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligining 2025-yil 17-dekabrda 03/41-4-28285-sonli, O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining 2025-yil 12-noyabrda 24-127593-sonli xatlari, 2026-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni ijrosini ta'minlash, viloyat soliq boshqarmasining 2025-yil 9-dekabrda 20/26-81145-sonli xati Navoiy viloyati bo'yicha 2026-yilda yuridik va jismoniy shaxslar uchun ayrim soliqlarni hisoblab chiqarish maqsadida qo'llaniladigan koeffitsentlar, mutlaq miqdor summalarini tasdiqlash va viloyat soliq boshqarmasi boshlig'i V.Rajabovning axboroti hamda bildirilgan fikr va mulohazalarni inobatga olib, xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. 2026-yilda Navoiy viloyatida bo'yicha yuridik shaxslarning qishloq xo'jaligida mo'ljallanmagan yerlarini bazaviy soliq stavkasi mutlaq miqdori 1 gektar uchun **42,4 mln.so'm**, jismoniy shaxslar yerlarining 1 kv.m uchun bazaviy soliq stavkasi mutlaq miqdori **377,0 so'm** hamda yuridik shaxslarning mol-mulki va jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan, yashashga mo'ljallanmagan ko'chmas mulk obyektlari uchun mol-mulk solig'ini hisoblashda 1 kv.metr uchun eng kam qiymati tumanlarda **1 390 000 so'm** belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalarini qonunchilikda belgilangan miqdorlar doirasida:

-shaharlar va tumanlarning iqtisodiy salohiyati va rivojlanishiga qarab, qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo'yicha 2026-yilda Navoiy viloyati uchun mutlaq miqdorda belgilangan yer solig'ining bazaviy soliq stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsiyentlar miqdorlari [1-ilovaga](#) muvofiq;

-shaharlar va tumanlarning iqtisodiy salohiyati va rivojlanishiga qarab jismoniy shaxslar bo'yicha (*dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallagan yerlardan tashqari*) 2026-yilda viloyat uchun mutlaq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsiyentlar miqdorlari [2-ilovaga](#) muvofiq;

-yuridik shaxslarning mol-mulki va jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan, (*tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo'ljallangan yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk obyektlari*) uchun mol-mulk solig'ini hisoblashda 2026-yilda 1 kv.metr uchun belgilangan eng kam qiymatiga nisbatan qo'llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori [3-ilovaga](#) muvofiq;

-2026-yil uchun mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun belgilangan ijara to'lovining eng kam stavkalariga nisbatan qo'llaniladigan oshiruvchi koeffitsiyent miqdorlari [4-ilovaga](#) muvofiq;

-jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i bo'yicha Soliq kodeksi bilan o'rnatiladigan soliq stavkalariga nisbatan qo'llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar miqdori [5-ilovaga](#) muvofiq;

3. Xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari mahalliy byudjet prognozlarini inobatga olib, 1 va 2-ilovaga asosan qo'llaniladigan koeffitsiyentlarga nisbatan tegishli hududda joylashgan daha, mavze, mahalla, ko'cha kesimida 0,7 dan 3,0 miqdorda kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni belgilash huquqiga ega.

4. Xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari tegishli hududda joylashgan daha, mavze, mahalla, ko'cha kesimida yuridik va jismoniy shaxslar uchun 2026-yilda belgilangan yer soliq stavkalarini taqdim etilishini ta'minlasin.

5. Viloyat hokimligi ushbu qaror bilan ma'qullangan Navoiy viloyati bo'yicha yuridik va jismoniy shaxslar uchun ayrim soliqlarni hisoblab chiqarish maqsadida qo'llaniladigan koeffitsiyentlar, mutlaq miqdor summalari to'g'risidagi ma'lumotlarni "Do'stlik bayrog'i" va "Знамя дружбы" gazetalari hamda viloyat hokimligining rasmiy veb saytida e'lon qilsin.

6. Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2025-yil 17-yanvardagi Navoiy viloyati bo'yicha 2025-yil uchun yuridik va jismoniy shaxslarning yer solig'i stavkalarini hamda mol-mulk solig'ini hisoblashda qo'llaniladigan eng kam

qiymatni tasdiqlash to'g'risida"gi VII-4-3-5-0-K/25-sonli qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o'rinbosari (R.Sulaymonov) va xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (N.Isoqov) zimmalariga yuklansin.

Sessiya raisi



**HAMRAYEV
JAMOLIDDIN
JUMAQULOVICH**

Xalq deputatlari Navoiy viloyati
Kengashining
2026-yil 9-yanvardagi
VII-23-1-5-0-K/26 -son qaroriga
1-ilova

**Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo'yicha
2026-yilda Navoiy viloyati uchun mutlaq miqdorda belgilangan yer solig'ining
bazaviy soliq stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsiyentlar**

N/R	Shaharlar va tumanlar nomi	Yuridik shaxslarning qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlari uchun yer solig'i stavkasi	
		Koeffitsient miqdori	Soliq summasi (1 gektar uchun, ming so'mda)
1	Navoiy shahar	1,60	67 840 000
2	Zarafshon shahar	1,30	55 120 000
3	Uchquduq tuman	1,10	46 640 000
4	Konimex tuman	1,10	46 640 000
5	Qiziltepa tuman	1,10	46 640 000
6	Tomdi tuman	1,00	42 400 000
7	Navbahor tuman	1,20	50 880 000
8	Xatirchi tuman	1,30	55 120 000
9	Nurota tuman	1,10	46 640 000
10	Karmana tuman	1,30	55 120 000
11	G'ozg'on shahar	1,10	46 640 000

Xalq deputatlari Navoiy viloyati
Kengashining
2026-yil 9-yanvardagi
VII-23-1-5-0-K/26 -son qaroriga
2-ilova

Jismoniy shaxslar bo'yicha (*dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallagan yerlardan tashqari*) 2026-yilda Navoiy viloyati uchun mutlaq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsiyentlar

T.R	Shaharlar va tumanlar nomi	Jismoniy shaxslar uchun yer solig'i stavkasi	
		Koeffitsent miqdori	Soliq summasi (1 kv.m uchun, so'mda)
1	Navoiy shahar	1,00	377,00
2	Zarafshon shahar	1,00	377,00
3	Uchquduq tuman	1,00	377,00
4	Konimex tuman	1,00	377,00
5	Qiziltepa tuman	1,00	377,00
6	Tomdi tuman	1,00	377,00
7	Navbahor tuman	1,00	377,00
8	Xatirchi tuman	1,00	377,00
9	Nurota tuman	1,00	377,00
10	Karmana tuman	1,00	377,00
11	G'ozg'on shahar	1,00	377,00

Xalq deputatlari Navoiy viloyati
Kengashining
2026-yil 9-yanvardagi
VII-23-1-5-0-K/26 -son qaroriga
3-ilova

**Yuridik shaxslarning mol-mulki va jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan,
(tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo'ljallangan yashash uchun
mo'ljallanmagan ko'chmas mulk obyektlari) mol-mulk solig'ini hisoblashda 2026-
yilda 1 kv.metr uchun belgilangan eng kam qiymatga nisbatan qo'llaniladigan
koeffitsiyentlar**

T.R	Shaharlar va tumanlar nomi	Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlarda ro'yxatdan o'tkazilishi lozim bo'lgan binolar va inshootlarning 2026-yilda 1 kv.metr uchun belgilangan eng kam qiymatga nisbatan qo'llaniladigan <i>(Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo soliq inspeksiyasiga tegishli subyektlardan tashqari)</i>	
		Koeffitsient miqdori	Eng kam qiymat (1 kv.m uchun, so'mda)
1	Navoiy shahar	1,0	2 350 000,0
2	Zarafshon shahar	1,0	1 390 000,0
3	Uchquduq tuman	0,6	834 000,0
4	Konimex tuman	0,6	834 000,0
5	Qiziltepa tuman	1,0	1 390 000,0
6	Tomdi tuman	0,5	695 000,0
7	Navbahor tuman	1,0	1 390 000,0
8	Xatirchi tuman	1,0	1 390 000,0
9	Nurota tuman	1,0	1 390 000,0
10	Karmana tuman	1,0	1 390 000,0

11	G'ozg'on shahar	1,0	1 390 000,0
----	-----------------	-----	-------------

Xalq deputatlari Navoiy viloyati
Kengashining
2026-yil 9-yanvardagi
VII-23-1-5-0-K/26 -son qaroriga
4-ilova

**2026-yil uchun mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun
belgilangan ijara to'lovining eng kam stavkalariga nisbatan qo'llaniladigan
koeffitsiyent miqdori**

T/r.	Hududlar nomi	Bir oylik ijara to'lovi stavkalarining eng kam miqdorlari, so'mda			
		Binolar:			
		Turar joy		Noturar joy	
		Koeffitsent miqdori	umumiy maydonning 1 kv.metri uchun (so'mda)	Koeffitsent miqdori	umumiy maydonning 1 kv.metri uchun (so'mda)
1	Navoiy shahar	1,30	18 850,0	1,30	36 920,0
2	Zarafshon shahar	1,20	7 080,0	1,30	15 340,0
3	Uchquduq tuman	1,10	6 490,0	1,10	12 980,0
4	Konimex tuman	1,00	5 900,0	1,00	11 800,0
5	Qiziltepa tuman	1,10	6 490,0	1,10	12 980,0
6	Tomdi tuman	1,00	5 900,0	1,00	11 800,0
7	Navbahor tuman	1,10	6 490,0	1,10	12 980,0
8	Xatirchi tuman	1,10	6 490,0	1,10	12 980,0
9	Nurota tuman	1,00	5 900,0	1,00	11 800,0
10	Karmana tuman	1,20	7 080,0	1,20	14 160,0

11	G'ozg'on shahar	1,00	5 900,0	1,00	11 800,0
----	-----------------	------	---------	------	----------

Xalq deputatlari Navoiy viloyati
Kengashining
2026-yil 9-yanvardagi
VII-23-1-5-0-K/26 -son qaroriga
5-ilova

**Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i bo'yicha Soliq kodeksi bilan
o'rnatiladigan soliq stavkalariga nisbatan qo'llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori**

T/r	Tuman va shaharlar nomi	2026-yil koeffitsiyent miqdori				
		Uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari (umumiy maydoni 200 kv.m gacha bo'lganlarini qo'shib hisoblaganda), ko'p kvartirali uylarga uzviy bog'liq bo'lgan avtomashina turar joylari, shuningdek boshqa imoratlar, binolar va inshootlar	Shaharlarda joylashgan uy-joylar va kvartiralar, umumiy maydoni: 200 kv.m dan ortiq va 500 kv.m gacha bo'lgan	Shaharlar da joylashgan uy-joylar va kvartiralar, umumiy maydoni: 500 kv.m dan ortiq bo'lgan	Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo'lgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari	Tadbirkorlik faoliyati uchun yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berishda foydalaniladigan soliq solish obyektlari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromadlar olish uchun mo'ljallangan, yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk obyektlari
1	Navoiy shahar	1,20	1,20	1,20	1,20	1,20
2	Zarafshon shahar	1,20	1,20	1,20	1,20	1,20
3	Uchquduq tuman	1,20	1,20	1,20	1,20	1,20
4	Konimex tuman	1,20	1,20	1,20	1,20	1,20
5	Qiziltepa tuman	1,20	1,20	1,20	1,20	1,20
6	Tomdi tuman	1,20	1,20	1,20	1,20	1,20
7	Navbahor tuman	1,20	1,20	1,20	1,20	1,20
8	Xatirchi tuman	1,20	1,20	1,20	1,20	1,20
9	Nurota tuman	1,20	1,20	1,20	1,20	1,20
10	Karmana tuman	1,20	1,20	1,20	1,20	1,20

11	G'ozg'on shahar	1,20	1,20	1,20	1,20	1,20
----	-----------------	------	------	------	------	------